

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

"MILLIY G'OYA VA TA'LIM - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSI"

Bozorboyeva Farangizbonu Baxtiyor qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi yo'nalishi 3-kurs talabasi

bozorboyevafarangiz1901@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lif va tarbiyaning ajralmasligi, milliy g'oya va ma'naviyatning yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda davlat tomonidan ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar keng yoritilgan. Shuningdek, huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ta'lif olish huquqi va uning muhimligi ta'kidlanadi. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston — 2030" dasturlarining ta'lif sohasidagi islohotlarga oid qismi ham atroflicha tahlil qilingan. Maqola ta'lif sifatini oshirish, xalqning huquqiy ongi va intellektual salohiyatini yuksaltirish orqali mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish g'oyasini ilgari suradi.

Abstract: This article extensively discusses the inseparability of education and upbringing, the role of the national idea and spirituality in the upbringing of youth, and the strategies aimed at developing the education system by the state. It also emphasizes the right to education, legally enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, and its importance. The Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 and the "Uzbekistan - 2030" programs, put forward by our Head of State, are also analyzed in detail. The article puts forward the idea of contributing to the development of the country by improving the quality of education, raising the legal awareness and intellectual potential of the people.

Kalit so'zlar: ta'lif, tarbiya, milliy g'oya, davlat, maktab, yoshlar, strategiya, tizim.

Keywords: education, upbringing, national idea, state, school, youth, strategy, system.

"Ta'limi tarbiyadan, tarbiyani ta'lifdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir"⁴⁵ degan edilar birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Globallashuv jarayoni jadallahib borayotgan hozirgi davrda ta'lif va tarbiya masalasiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fani ham yurtimiz uchun har tomonlama yetuk, salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

Tarixdan ma'lumki, boshqa hududlarni egallash yoki o'z yurtini himoya qilish maqsadida harbiy quollar doimiy ravishda takomillashtirib borilgan. Buning asosiy maqsadi bosib olinmoqchi bo'lgan davlatning hokimiyati va boyliklarini qo'lga kiritish bo'lgan. Hozirgi

⁴⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'na viyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 62-bet.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

kunda esa bunday maqsadlarga erishish uchun urush olib borish yoki xalqni jismonan asirga olish shart emas. Chunki tajovuzkor mafkura va g'oyalar yordamida insonlarning qalbi va ongi egallansa, ularning o'zлari ham kurashsiz taslim bo'lishlari mumkin. Bugungi dunyoning mafkuraviy maydonida aynan shu ikki kuch o'rtasidagi kurash yaqqol sezilmoqda. Bu kurashning bir tomoni xalqlarni taraqqiyot sari yetaklayotgan ilg'or mafkura bo'lsa, ikkinchi tomoni esa ularning yo'lini to'sishga, rivojlanishga halal berishga intilayotgan zararli va buzg'unchi g'oyalardir. Erkin va farovon jamiyat asoslarini yaratib, taraqqiyot sari intilayotgan ilg'or davlatlar esa o'z mafkuralarini umuminsoniy qadriyatlar hamda demokratik tamoyillar asosida shakllantirib, yanada rivojlantirmoqda.

"Dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda barcha islohotlar maktabgacha ta'lif tizimidan, ya'ni bog'chadan, maktabdan, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. O'tgan asr boshida jadid bobolarimiz shuning uchun ham mакtab masalasini eng birinchi o'ringa qo'ygan edilar. Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir", degan so'zlarida qanday chuqur ma'nobor. Biz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan so'zlarini ko'p bora esga olamiz. Biroq unga e'tibor qilish u yodqa tursin, ko'p hollarda bu da'vatning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib, ham berolmaymiz. Boshqacha aytganda, ushbu tizimning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerak. Bu borada milliy ta'lif-tarbiya tizimini shakllantirishda bir omil borki, uni ro'yobga chiqarish uchun faqat istak, mablag', vaqtning o'zi kifoya emas"^[46] deb ta'kidlab o'tgan edilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

"2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi", "2022-2026-illarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lif va boshqa sohalaridagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim manbaa hisoblanadi.

Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham ta'lif sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan maqsadlar aniq belgilab qo'yilgan;

44-maqсад: Maktablarda ta'lif sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash.

Toifaga ega bo'lmagan mакtab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish.

Umumta'lif maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lif maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish.

⁴⁶ Mirziyoyev Sh.M Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari.: T "O'zbekiston", 2020, 143-148-betlar.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

Maktablarda direktor va uning o'rinnbosarlarini tayinlash tizimini maktab o'qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta'minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.

Xalq ta'lifi tizimi tuman bo'linmalari faoliyatini to'liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish.

49-maqsad: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

2022-yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygochlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo'ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.

Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish.

Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o'quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish.

Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi"ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.

Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg'armasini, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang'ich raqs san'ati mакtab-internatini tashkil etish.

2026-yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish.^[47]

Bundan tashqari "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham 2030-yilgacha bo'lgan vaqt mobaynida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ustuvor yo'nalishlar va rejalar hamda erishilishi kerak bo'lgan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniq belgilab qo'yilgan. Quyida ta'lim tizimi sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bir qancha maqsadlar keltirib o'tiladi:

1.1. Ta'lim tizimi islohotlari

1. Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash.

Bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhlari bilan to'liq qamrab olish.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish.

⁴⁷ <http://https://lex.uz/docs/5841063>

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash.

2.Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish.

Olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash

7.Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.

Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash.

30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

"Top-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish.

10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1 000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish^[48] Ushbu "O'zbekiston — 2030" strategiyasining maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim hamda professional ta'limni yangi bosqichga olib chiqish kabi maqsadlar bilan boshlanganligi ham hozirgi kunda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda yurtboshimiz ta'lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratayotgan bir paytda, biz ham o'z yo'nalishimiz va kasbiy faoliyatimizdan kelib chiqib, jamiyat taraqqiyotiga befarq bo'lmasligimiz lozim. Zero ta'lim va tarbiya jamiyatning asosiy tayanchi bolib, bu masala O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan;

50-modda. Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

⁴⁸ <http://https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

51-modda. Fuqarolar davlat ta'lif tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliv ma'lumot olishga haqli.

Oliy ta'lif tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega^[49] ekanligi belgilab qo'yilgan.

XULOSA

Shunday ekan, biz ta'lifning ahamiyatini chuqur anglab, jamiyatimizning intellektual salohiyatini oshirishga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur. Har bir fuqaro, ayniqsa, yosh avlod ta'lif va tarbiyasiga e'tibor qaratib, bilim va ma'rifat targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Milliy g'oyani rivojlantirish va Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun ta'lif tizimining sifatini oshirish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ta'lif va milliy g'oya uyg'unlashgan taqdirdagina, yurtimizning buyuk kelajagini barpo eta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'na viyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008, 62-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari.: T "O'zbekiston", 2020, 143-148-betlar.
3. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmoni http://https://lex.uz/docs/5841063_Lex.uz
4. O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni http://https://lex.uz/ru/docs/-6600413_Lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi http://https://lex.uz/docs/-6445145_Lex.uz

⁴⁹ <http://https://lex.uz/docs/-6445145>